

SIROJIDDIN SAYYID SHE`RLARIDA VATAN MAVZUSI

Samadova Dilnoza

Berdaq nomidagi QQDU O`zbek filologiyasi fakulteti
3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16791771>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sirojiddin Sayyidning hayoti, ijodi va uning vatan mavzusidagi she`rlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada shoirning vatanparvarlik g`oyalari to`g`risida ham fikr yuritiladi.

**Kalit so`zlar:** vatan, vatanparvarlik, badiiy mahorat, ma`naviyat.

Abstract: This article analyzes the life, work, and poems of Sirojiddin Sayyid on the theme of homeland. The article also discusses the poet's patriotic ideas.

Keywords: homeland, patriotism, artistic skill, spirituality

Аннотация: В статье анализируются жизнь творчество и стихи Сирожиддина Сайида на тему родины. В статье также рассматриваются патриотические идеи поэта.

Ключевые слова: родина, патриотизм, художественное мастерство, духовность.

Kirish

O`zbek adabiyotida vatan mavzusi doimiy va eng muhim mavzulardan biri bo`lib kelgan. Mumtoz va zamonaviy adabiyotimizda ham vatan haqida yozmagan ijodkor bo`lmasa kerak. Bu mavzuda Cho`lpon, Abdulla Avloniy, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, SHavkat Rahmon, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdiyeva, Usmon Azim va boshqa shoirlarimiz barakali ijod qilishgan. Biroq har bir shoir ijodida uning o`ziga xos ta`rif-u tavsifi mavjud.

Vatan mavzusi boshqa shoirlar singari Sirojiddin Sayyid ijodida ham alohida ahamiyatga ega. Shoir Sirojiddin Sayyid ham bu mavzuga o`ziga xos, chuqur hissiyotlar va milliy g`urur bilan yondashadi. Vatan va millatga muhabbat tuyg`usi shoir she`rlarining asl mohiyatini, mag`zini belgilaydi. Uning vatan mavzusidagi she`rlarida vatanga bo`lgan muhabbat, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik g`oyalari to`g`risida ham fikr yuritiladi.

Asosiy qism

Sirojiddin Sayyid XX asr o`zbek adabiyotining o`ziga xos ijodkorlaridan biridir. Sirojiddin Sayyid she`rlarida o`zbek mumtoz she`riyati an`analari bo`lmish xalqchilik, soddalik va musiqiy tovlanishlar yetakchilik qiladi. Uning ilk she`rlar to`plami- "Ruhim xaritasi" (1985). Shundan keyin uning "Salqin xarsanglar kaftida", "Sevgi mamlakati", "Asragil", "Mehr qolur, muhabbat qolur", "Kuydim", "Vatanni o`rganish", "Vatan abadiy", "Ustimizdan o`tgan oylar", "Qaldirg`ochlarga ber ayvonlaringni" va boshqa to`plamlari nashr etilgan.

Sirojiddin Sayyid ham dunyodagi barcha shoirlar singari insonni qiziqtirgan, inson qalbini to`lqinlantiradigan mavzularda qalam tebratdi. Uning lirikasida xalqimiz o`tmish madaniyati va tarixini ulug`lash, buyuk ajdodlarimizdan faxrlanish, ma`naviy-axloqiy muammolar, insoniy dardlar, armonlar, ishq-muhabbat kabi mavzular keng o`rin olgan. Ta`kidlaganimizdek, vatan mavzusi shoir lirikasining yetakchi mavzularidan biri bo`lib kelgan. Uning "Ilinj" va "Vatan" she`rlari buning yorqin namunasidir. Shoir "Ilinj" she`rida vatanning moddiy boyliklariga emas, balki uning ruhiy va tarixiy qadriyatlariga bo`lgan chuqur mehrini ifodalaydi.

"Yurtim, menga zar kerakmas zarlaringdan,

Kipriklarim o`psalar bas gardlaringdan."

Bu misralarda "zar"-boylik, moddiy qimmatbaho narsalar ramzi sifatida ishlatilgan. Ammo shoir uchun bunday tashqi boyliklar ahamiyatga ega emas, uning qalbida vatanga nisbatan

samimiy mehr bor.”Kiprik”- bu yerda vatanning nafis yuzini ifodalayapti. Demak, shoir uchun eng qimmat narsa-vatanning o`zi.

“Men bir nasim bo`lib keldim, men bir nasim,
Aytib o`tsam deyman ko`hna dardlaringdan.”

“Nasim”-shoirning o`zi, u yurtga tinchlik, yangilanish, shifo olib keluvchi kuch sifatida kelishini bildiradi. Bu obraz orqali vatan dardlarini, uning azoblarini o`ziga olgan insonning mehr-muhabbati ifodalanadi.

She`rda tarixiy yodgorliklar ham muhim o`rin tutadi:

“Menga qadim minorlardan bir sas yetar.
Shul sas mening ko`nglim oxir serfayz etar”

Bu satrda qadim minoralarning tovushi shoir uchun ruhiy shifo va ilhom manbaidir.

“Vatan she`ri vatanga muhabbat va milliy g`ururni o`zida mujassamlashtirgan dardli va g`o`zal she`rdir. Shoir vatanni inson qalbining ajralmas qismi sifatida ko`rsatadi:

“Dil porasi, ko`z qorasi sen o`zingdiansan,
Mening ko`nglim sen aslida, sen ko`zimdiansan.”

Bu yerda “dil porasi” va “ko`z qorasi”- eng qimmat, eng nozik narsalar sifatida vatan timsoli.

Tabiat tasviri she`rga yanada rang-baranglik va jonlilik baxsh etadi:

“Oyu quyosh, kamalaklar ko`zu qoshlaring,
Beshigimni tebratgandir qaldirg`ochlaring.”

Bu misrada oy va quyosh-yorug`lik, hayot manbai, kamalak esa tinchlik va go`zallik ramzi sifatida ishlatilgan. Qaldirg`ochlar esa ota-ona tomonidan bola beshigini tebratish, himoya qilish ramzi, bu vatanning mehr-oqibatli yuzini anglatadi.

“Temurlari ot minganda jahon lol bo`lgan,
Jahonlarga timsol shohu sultonim, Vatan”

Bu satrlar orqali shoir o`z vatanining ulug` tarixiy shaxslarini yodga oladi. Temur kabi buyuk sarkardalar va hukmdorlar vatan sharafiga ko`tarib, butun jahonga namuna bo`lganini ta`kidlaydi.

“Cho`lpo, Fitrat, Qodiriy ham Usmonim, Vatan.”

Bu misrada shoir milliy adabiyot va madaniyatning buyuk namoyondalarini eslab, vatan bilan madaniy-ruhiy bog`liqligini ifodalaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, Sirojiddin Sayyidning ikki she`rida ham vatan-inson qalbi va ruhining markazi sifatida talqin etiladi. Har ikki she`r vatanga muhabbat va sadoqatni o`zining turli tomonlari bilan ochib beradi. Sirojiddin Sayyid she`rlari yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda juda kata ahamiyatga ega. Chunki uning she`rlarida milliy g`urur, tarix va madaniyat ramzlari mavjud. Shoirning she`rlari milliy ma`naviyatni mustahkamlash uchun ham muhim manba hisoblanadi.

References:

Используемая Литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sirojiddin Sayyid. Tanlangan she`rlar. Toshkent: Adabiyot va san`at. 2021

2. Abdullayev O.O`zbek adabiyoti tarixi.Toshkent:O`qituvchi.2010
3. Islomov M.Milliy istiqlol va adabiyot.Toshkent:Sharq.2015
4. Mirzaahmedov R.She`riyatda vatan tasviri.Toshkent:Fan va texnologiya.2008